



ABDULLA QAHHORNING "DAHSHAT" HIKOYASI TAHLILI

Sevara Shermamatova O'ktamjonovna

Farg'ona Davlat Universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti, o'qituvchisi

Shahlo Shumqoraliyeva

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti, talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining eng mashhur hikoyanavisi Abdulla Qahhor ijodi va uning "Dahshat" hikoyasi tahlil qilinadi. Bu hikoyaning asosiy mazmuni va bu hikoyada oldinga qo'yilgan asosiy maqsad yuzaga chiqariladi. Maqolani yoritish davomida, "Dahshat" hikoyasining asl mavzusi ochib beriladi. Shu bilan birga, voqealar rivoji orqali o'sha davrning eng qo'rqinchli hayot tarzi tahlil qilinadi

Kalit so'zlar: hikoyanavis, qabriston, realistik hikoya, erksizlik, o'zbek ayoli, daxshat

Mohir hikoyanavis o'zbek realistik hikoyachiligining asoschisi, betakror qalam sohibi Abdulla Qahhor o'zining bir qancha hikoyalari bilan o'zbek hikoyachiligida o'z o'rniga ega bo'lgan. Abdulla Qahhor A.Qodiriyning "Uloqda", Cho'lponning "Oydin kechalarda", "Qor qo'ynida lola" kabi hikoyalari tayangan holda o'zbek hikoyachiligini yuqori cho'qqilarga ko'tardi va o'zbek realistik hikoyachiligining asoschisi degan nom oldi. Abdulla Qahhorning shunday hikoyalari bor ki, ularni jahon novellistik adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan bir qatorga qo'yish mumkin", – deb yozgan edi rus tanqidchisi V. Smirnova.¹ Bular sirasiga "Xotinlar", "Asror bobo", "Ming bir jon", "Mahalla", "Dahshat", "O'gri" va "Bemor" kabi hikoyalar kiradi.

Bular orasidan Dahshat hikoyasiga to'xtalsak, Dahshat hikoyasini yaratishda Abdulla Qahhor xalq og'zaki ijodidan foydalangan. Chunki xalq orasida keng yoyilgan afsonalardan biri erkaklar orasida kechasi qabristonda biror ishni bajarib kelish mardlik va kuchlilik hisoblangan. "Dahshat" hikoyasining boshlanishida Nodirmohbegim shunday hikoya so'zlab beradi. Bo'yra kelib darchaga urilgandan so'ng bu voqea Nodirmohbegimning hayoliga keladi.

Bo'yra kelib darchaga urilgandan so'ng Dodxo cho'chib ketadi va undan so'ng Nodirmohbegim aytgan voqea Unsinni tetiklashtiradi, shijotga, erkini uyg'onishiga turtki bo'ladi. Unsinning qo'yni arziyas narsa ekan deyishi va qabristonday joyga borib go'rga pichoq sanchgan odamni "o'lsin nokas odam ekan" deyishi boyni jahlini chiqaradi. Unsinning tegirmonchining qizi bo'lib, qo'yni nazarga ilmasligi

¹Qo'shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati. Toshkent, 1984. 26-bet



dodxonni yangi reja tuzishga undadi. Dodxo: "Sen o'zing, o'nta qo'y bersam, davlatimni yarmini bersam pichoq sanchib kelasanmi? -dedi. Unsin menga davlat kerak emas, kerak bo'lsa borar edim deydi va shunda dodxo kutib turgandek "Nima kerak?" deydi. Va Unsinni kundoshlari javob berishga undaydi, - "Ruxsat bersangiz Ganjiravonga ketsam". Mute xotinlari bilan yashab o'rgangan dodxo Unsinni gapini tushunmaydi. Unsin shijoat, jasorat bilan Dodxoga tik boqadi, - "Yo'q men butkul ketsam deyman, javobimni bersangiz". Dodxo unsinni mute ayollari singari savalamadi. Muloyimlik bilan, - "Go'ristonga pichoq emas, qumg'on olib borasan, Onhazratim sag'anasida bitta choy qaynatib, choy damlab kelasan, maylimi". "Mayli",- dedi Unsin.² Shundan keyin Unsin qabristonga yo'l oldi. Qabristonda qo'rqqan paytida "O'likning joni yo'q" deb baqirdi. Sag'ana oldiga qo'lida qumg'on, paranji, choynak bilan keladi. O'tin esidan chiqadi va qabrlar orasida xas-xashaklarni terib olov yoqadi. Bu uning ozod bo'lishining birinchi belgisi edi. Nihoyat Unsin choyni qaynatib uyga yo'l oladi. Yo'lda oyog'i chuqurlikka tushdi u qo'rqib " O'likning joni yo'q"-deb baqirdi. Bir kavushi tushib qoldi va mahsichan ketaverdi. Yo'lda uning yelkasiga nimadir minib oldi va Unsin hushidan ketdi. U Dodxonning maymuni edi. Unsin hushiga keldi va yo'lida davom etdi. Chap qo'lida qattiq og'riq boshlandi va darmoni yetganicha harakat qilardi bu ham yetmagandan choynak og'irlashganday bo'ldi. Unsin manziliga yetdi. Nodirmohbegimning eshigi ochildi va Unsinni ko'rgan Dodxo tashqariga otildi. "Qabristondan qo'rqqanga qabristonning tuprog'i davo"-deb Nodirmohbegim go'riston tuprog'idan olib keltirib, suv ichiradi. Unsinning ahvoli og'irlashadi va Ganjiravonga ketishini so'raydi. Nodirmohbegim kaltaklanishdan hayiqmay bir xizmatkorini Ganjiravonga yuboradi ,biroq Unsin peshingacha yetmadi, joni uzildi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qahhor bu hikoyada burungi zamondagi oddiy, sodda o'zbek ayyollarining boshiga tushgan xo'rlik, musibat, kulfatlarni tasvirlaydi. Shu bilan birgalikda, "Dahshat" hikoyasi erksiz insonlarni ozodlikka chiqish yo'lidagi mashaqqatli harakatlarni ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Ilhom bilan yozilgan asar" Dilmurod Quronov
2. Qo'shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984.
3. Sanjar Sodiqov. So'z san'ati jozibasi. Toshkent. „O'zbekiston“, 1996.

² Sanjar Sodiqov. So'z san'ati jozibasi. Toshkent. „O'zbekiston“, 1996. 143-bet



4. Sanjar Sodiq. Abdulla Qahhor ijodi va adabiy tanqid. Toshkent, „Universitet“, 1996.
5. Normatov U. Abdulla Qahhorni anglash mashaqqati. Toshkent. „Universitet“, 1999.
6. Qo‘chqorov R. Men bilan munozara qilsangiz. -T. Ma’naviyat nashr. 1999.
7. Karimov N. va boshqalar. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi. – T.: „O‘qituvchi“, 1999.
8. www.ziyonet.uz
9. arxiv.uz
10. elibbuxdu.uz
11. "Dahshat" - Abdulla Qahhor
12. "O'zbek adabiyoti tarixi" - M. Aminov
13. "O'zbek adabiyoti antologiyasi" - N. Ahmadjonov
14. "O'zbek xalq ertaklari to'plami" - M. Isroilov
15. "Qahharnoma" - M. Yusupov
16. "O'zbek adabiyoti tarixi va nazariyasi" - R. Akbarov
17. "Qahhorning yaratilishi va ijodi" - O. Rahimova
18. "O'zbek adabiyoti tarixi: O'zbekistonda adabiyotni tashkil etishning asosiy bosqichi (1917-1941 yy.)" - Nodirbek Ergashev